

## “KUNTUG‘MISH” DOSTONIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING LINGVISTIK TADQIQI

**Jumayeva Dilafro'z Orifjon qizi**

*Termiz davlat universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada "Kuntug'mish" dostonida mavjud lingvomadaniy birliklardan biri bo'lgan o'xshatishlar lingvistik, semantik jihatdan tahlilga tortildi. Misollar yordamida ushbu birlikning ijtimoiy, amaliy, madaniy ahamiyati yoritildi.*

**Kalit so'zlar:** *turg'un o'xshatish, erkin o'xshatish, lingvomadaniy tahlil, semantik tahlil, etalon, komponent.*

Lingvomadaniyatning tadqiqot usullari orasida badiiy matnlarni lingvistik va lingvomadaniy tahlil qilish alohida o‘rin tutadi. Badiiy matnlar tahlilini amalga oshirish uchun matnni diqqat bilan o‘rganishga kirishilganda til va madaniyat olamiga yanada chuqurroq murojaat qilinadi, yaxshiroq o‘rganiladi, tahlil qilinadi. O‘rganilayotgan badiiy matnlardagi lingvomadaniy til birliklarning ma‘no va mazmunlarini kengroq ochish, tushunishga erishiladi. Lingvomadaniy birlik esa lisoniy belgining ma‘nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topuvchi, semantik madaniy axborot yaqqol namoyon bo‘luvchi til birliklari. Jumladan, frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg‘un o‘xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimga doir so‘zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxetiplar, mifologemalar, lakunalar, pretsedent birliklar va b. Bundan tashqari lingvomadaniyatning qiziqish doirasiga ramziy ma‘noga ega bo‘lgan va madaniy ma‘lumotlarni aks ettiruvchi har qanday til birliklari (frazeologik birliklar, metaforalar, maqollar, o‘xshatishlar va h.k) kiradi.

Badiiy matnlarning lingvomadaniy tahlilini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘zbek tilshunos olimlaridan N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmonova, Sh.Maxmaraimova, A.E.Mamatov, B.Umurqulov, M.Muqimova, M.Yo‘ldoshev, M.Saidova va U.Qo‘ziyevlarning nazariyalariga murojaat qilish lozim bo‘ladi.

O‘xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslashdir. Professor Nizomiddin Mahmudov esa o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni to‘rt unsurga ajratib ularni o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb nomlaydi. “...o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi”.

Erkin o‘xshatishlar: “Kuntug‘mish” dostonida: Qoraxon qarasa, qog‘ozda bir qiz turibdi qayqayib: qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo‘lib, shirin qilib kulib, taraqqos boylab, suqsurday bo‘ylab, tovusday taranib, bellari buralib turibdi (11-bet). Ikki zolim chopib borib qoshiga, Qor-yomg‘irday tayoq yog‘ib boshiga (79-bet).

Turg‘un o‘xshatishlar: “Kuntug‘mish” dostoni: Xolbeka ham uyqudan uyg‘onib, to‘raning ishqida ilonday to‘lg‘anib, aslo orom-qarori qolmadi (7-bet); Xolbeka oyimning to‘lgan kamoli oyday jamoli munavvar bo‘lib turibdi (8-bet);

Ko‘kragimga solma qayg‘u-alamni,

Ko‘zlari qambarday qoshi qalamni (11-bet);

Qoraxon qarasa, qog‘ozda bir qiz turibdi qayqayib: qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo‘lib, shirin qilib kulib, taraqqos boylab, suqsurday bo‘ylab, tovusday taranib, bellari buralib turibdi (11-bet); Shaharning bozori ekan, odamlar qumursqaday qimirlab yotibdi (18-bet);

Naqsh olmaday yuzim yaxshi,

Mening so‘zlar so‘zim yaxshi (25-bet);

Qirqin qizi birday bo‘lib,

Bog‘da ochilgan gulday bo‘lib,

Jannatdagi hurday bo‘lib,

Xolbeka chiqdi ko‘shkiga (28-bet);

Shubhasiz, o‘xshatish badiiy vosita sifatida badiiy asarlarda azaldan qo‘llanib kelgan lingvomadaniy birliklardan hisoblanadi. Shuning uchun badiiy asarlarda, dostonlarda o‘xshatishlarning an‘anaviy bo‘lgan ko‘plab turlarini uchratishimiz mumkin. Jumladan, “Kuntug‘mish” dostonida: “Xolbeka oyimning to‘lgan kamoli, oyday jamoli munavvar bo‘lib turibdi” (8-bet). O‘zbek tilida oyday o‘xshatish etaloni juda keng qo‘llanadi. Bu o‘xshatish etalonini semantik va lingvomadaniy jihatdan go‘zal, chiroyli, xushbichim tarzida izohlashimiz mumkin hamda badiiy uslubda keng qo‘llanuvchi ot so‘z turkumidagi leksemdir. O‘zbek madaniyatidagi doston, ertak hamda badiiy matnlarida ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba‘zan kulchaga o‘xshatish me‘yor hisoblanadi. Ayol-qizlarimizning dostonlarda tengsiz go‘zal tarzida tasvirlanishi hamda bosh qahramon yigitlarning go‘zallikda jamoli ya‘ni yuzlari oydek munavvar, tiniq bo‘lgan qizlarni suyishi xalq dostonlarida an‘anaviy folklor asarlari syujetlaridandir.

Xolbeka bir oyday bo‘lib,

Qoshi sari yoyday bo‘lib,

Asovligi toyday bo‘lib,

Yuvoshligi qo‘yday bo‘lib,

Noz bilan kulib so‘ylasa,

Mayin sari moyday bo‘lib,

Silkinib chiqdi zinaga (28-bet).

O‘zbek tilidagi mavjud o‘xshatishlarni semantik tahlil qilinganda, o‘xshatish etaloni sifatida ko‘pincha hayvon yoki jonivorlarni bildiruvchi so‘zlardan foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, yuqoridagi misolda ham Xolbekaning qaysarligi, asovligi toyga, yuvoshligi qo‘yga o‘xshatilyapti. O‘zbek lingvomadaniyatida “qo‘yday yuvosh”, “otday yoki toyday qaysar, asov” o‘xshatish etalonlari ot+sifat ko‘rinishida badiiy uslubdagi asarlarda mavjud bo‘lib, bu o‘xshatishlar orqali o‘zbek mentalitetiga xos jihat, davriylik nuqtayi nazaridan qo‘yning yuvosh hayvon, toyning asovligi, gapga kirmasligini ifodalash bilan Xolbekaning xarakter xususiyati ochib berilmoqda.

“Ular ko‘shkidan pastga tushib to‘raga qarasa, sherday haybatiga, ajdarday suratiga, Rustamday quvvatiga, arslonday siyosatiga, bulutday savlatiga bosib kelolmadi...” (29-bet) misolida ham o‘xshatish etaloni hayvonlar bo‘lib kelyapti. Ushbu ot+ot birikma so‘zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarda qo‘llaniluvchi leksemalardir. Ajdarning “zo‘r, benihoya kuchli, pahlavonlik” ramzi sifatida, arslon, sherning “qo‘rqmas, baquvvatlik” xususiyatlari tarzida uchrashi o‘zbek lingvomadaniyatiga xos bo‘lib, “paxlavon, gavdali, baquvvat” erkak kishiga nisbatan esa “Rustamday” o‘xshatish etaloni qo‘llanilishi an’anaviydir. Bu o‘xshatishlarning hammasi birikib, dostonida Kuntug‘mishning jismoniy quvvatini tasvirlab, betakror badiiy tasvir ifodasini yuzaga keltirgan.

Turg‘un o‘xshatishlar o‘zbek tilining tamomila o‘ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuroti va an‘analarining betakror ko‘zgusi, bejirim va ta’sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tuganmas manba, avlodlar o‘rtasidagi obrazlar vorisiyligini ta’minlashga xizmat qiladigan g‘oyat muhim unsurlardan biridir. Umuman, o‘xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati / D. Xudoyberganova. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 26.
2. Muhammadjonova M. Turli tizimdagi tillarda lingvistik birliklar tadqiqi. Maqola. Farg‘ona davlat Universiteti. Ingliz tili va adabiyot fakulteti.
3. Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишлари-нинг изоҳли луғати.–Т.: Маънавият, 2013. –В. 5.
4. Kuntug‘mish. Ravshan. – T.: Sharq, 2011. – 368 b.